



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 88 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrorova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	



REFLEKSIV TA'LIM MUHITIDA O'Z-O'ZINI BAHOLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK PARAMETRLARI TIZIMI

UDK: 37.026.7:159.955

Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada refleksiv ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi nazariy-uslubiy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda J. Dyuining tajriba pedagogikasi, D. Kolbning tajriba o'qitish davrasi, J. Floull metakognitsiya nazariyasi va D. Nikolning ichki teskari aloqa konsepsiyasi asosida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarining tarkibiy tuzilishi aniqlandi. Maqolada o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning to'rt guruhli didaktik parametrlari tizimi ishlab chiqildi: maqsadli-mazmuniy (8 parametr), tashkiliy-jarayoniy (7 parametr), texnologik-vositali (6 parametr) va natija-baholash (5 parametr) guruhlari. Tadqiqot natijalarida muallif tomonidan didaktik parametrlarning iyerarxik tizimi, ularning indikatorlari hamda diagnostika mexanizmlari taqdim etildi. Tadqiqot natijalari oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida refleksiv ta'lim muhitini loyihalashtirishda foydalanish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: refleksiv ta'lim muhiti, o'z-o'zini baholash, didaktik parametrlar, metakognitsiya, ichki teskari aloqa, formativ baholash, refleksiv amaliyot, tajriba o'qitish davrasi, o'z-o'zini boshqarish, ta'lim oluvchi avtonomiyasi.

Abstract: This article analyzes the system of didactic parameters for developing learners' self-assessment skills in a reflective learning environment from theoretical-methodological and practical perspectives. The study, based on J. Dewey's experiential pedagogy, D. Kolb's experiential learning cycle, J. Flavell's metacognition theory, and D. Nicol's internal feedback concept, identifies the structure of self-assessment skills. The article develops a four-group system of didactic parameters for developing self-assessment skills: target-content (8 parameters), organizational-procedural (7 parameters), technological-instrumental (6 parameters), and result-evaluative (5 parameters) groups. In the research results, the author presents a hierarchical system of didactic parameters, their indicators, and diagnostic mechanisms. The research results can be used in designing a reflective learning environment in higher and general secondary educational institutions.

Key words: reflective learning environment, self-assessment, didactic parameters, metacognition, internal feedback, formative assessment, reflective practice, experiential learning cycle, self-regulation, learner autonomy.

Аннотация: В данной статье анализируется система дидактических параметров развития навыков самооценки обучающихся в рефлексивной образовательной среде с теоретико-методологической и практической точек зрения. В исследовании на основе педагогики опыта Дж. Дьюи, цикла обучения через опыт Д. Колба, теории метакогниции Дж. Флавелла и концепции внутренней обратной связи Д. Никола определена структура навыков самооценки. В статье разработана четырехгрупповая система дидактических параметров развития навыков самооценки: целевые-содержательные (8 параметров), организационно-процессуальные (7 параметров), технологические-инструментальные (6 параметров) и результативно-оценочные (5 параметров) группы. В результатах исследования автором представлены иерархическая система дидактических параметров, их индикаторы и механизмы диагностики. Результаты исследования могут быть использованы при проектировании рефлексивной образовательной среды в высших и общеобразовательных учреждениях.

Ключевые слова: рефлексивная образовательная среда, самооценивание, дидактические параметры, метакогниция, внутренняя обратная связь, формативное оценивание, рефлексивная практика, цикл обучения через опыт, саморегуляция, автономия обучающегося.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida bilim hajmi tobora ortib borayotgan va u tezkor yangilanayotgan sharoitda ta'lim oluvchining o'zini-o'zi rivojlantirish, o'z bilim va faoliyatini mustaqil baholay olish qobiliyati birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib bormoqda ^[10, 14]. "O'qib olish" tamoyilidan "o'rganishni o'rganish" tamoyiliga o'tish jara-

yonida o'z-o'zini baholash ko'nikmalari ta'lim oluvchining hayotiy va kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi meta-kognitiv kompetensiyalarning markaziy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" hujjatida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan ^[1]. Bu vazifani amalga oshirishda refleksiv ta'lim muhiti hamda undagi o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik tizimi muhim o'rin tutadi.

Refleksiv ta'lim muhiti tushunchasi nisbatan yangi pedagogik kategoriya bo'lib, u ta'lim oluvchining o'z faoliyati, fikrlash jarayonlari va o'rganish natijalariga muntazam ravishda chuqur tahliliy munosabatda bo'lish imkonini yaratuvchi maxsus tashkillashtirilgan didaktik makonni ifodalaydi ^[4, 12]. Bunday muhitda o'z-o'zini baholash ko'nikmalari faqat baholash funksiyasini emas, balki o'rganish faoliyatining markaziy mexanizmini tashkil etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagi qarama-qarshiliklar bilan asoslanadi.

Birinchidan, zamonaviy ta'lim standartlarida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish talab sifatida belgilangan, biroq uning didaktik parametrlari tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Ikkinchidan, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda refleksiv ta'lim muhiti va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari alohida-alohida o'rganilgan, ammo ularning o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilinishi yetarli emas ^[8, 11].

Uchinchidan, o'qituvchilarning amaliyotida o'z-o'zini baholashning ko'pincha sodda anketa shaklida qo'llanilishi, uning chuqur didaktik mohiyatini ochib bermayotir.

Tadqiqotning maqsadi – refleksiv ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning yaxlit didaktik parametrlari tizimini nazariy asoslash va ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1) refleksiv ta'lim muhiti va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari tushunchalarini operatsionalizatsiya qilish;
- 2) ularning psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilish;
- 3) didaktik parametrlarning tarkibiy guruhlarini aniqlash;
- 4) har bir parametr uchun ko'rsatkichlar va diagnostika mexanizmlarini taqdim etish.

Tadqiqot mavzusi bilan bog'liq adabiyotlarni quyidagi to'rt nazariy yo'nalish bo'yicha tahlil qilish mumkin.

Birinchi yo'nalish – refleksiv ta'lim nazariyasining klassik asoslari. J. Dyui o'zining "Demokratiya va ta'lim" (1916) hamda "Biz qanday fikrlaymiz" (1933) asarlarida refleksiv fikrlashni tajribadan o'rganishning markaziy mexanizmi sifatida ko'rsatib bergan ^[13]. D. Kolb (1984) o'zining tajriba o'qitish davrasi (Experiential Learning Cycle) modelini ishlab chiqib, refleksiv kuzatishni (reflective observation) o'rganish jarayonining to'rt asosiy fazasidan biri sifatida ajratdi ^[4]. D. Shyon (1983) "refleksiv amaliyotchi" konsepsiyasini taklif qilib, refleksiyaning ikki turini – faoliyat jarayonidagi refleksiya (reflection-in-action) va faoliyatdan keyingi refleksiyani (reflection-on-action) ajratdi.

Ikkinchi yo'nalish – metakognitsiya nazariyasi. J. Floull (1979) tomonidan kiritilgan metakognitsiya tushunchasi inson o'z kognitiv jarayonlarini tushunish va boshqarish qobiliyatini bildiradi ^[6]. A. Bandura (1986) o'zini-o'zi tartibga solish (self-regulation) nazariyasida o'z-o'zini baholash uchta asosiy fazaning – kuzatish, baholash va reaksiyaning – tarkibiy qismi sifatida ko'rilishini asoslab berdi. B. Zimmerman (2000) o'zini-o'zi tartibga solgan o'qitish (self-regulated learning) modelini taqdim etib, o'z-o'zini baholashning rejalashtirish, ijro etish va o'z-o'zini refleksiya bosqichlarini ajratib ko'rsatdi.

Uchinchi yo'nalish – zamonaviy o'z-o'zini baholash konsepsiyalari. D. Nikol va S. MakKallum (2021) ichki teskari aloqa (internal feedback) konsepsiyasini ishlab chiqib, uni o'z-o'zini baholashning yangi nazariy bazasi sifatida taqdim etdilar ^[11]. Y. Yan va D. Karleys (2022) o'z-o'zini baholash jarayonini uchta bosqichga – baholash mezonlarini aniqlash va qo'llash, o'z-o'zini refleksiya, o'z-o'zini baholash hukmlari va kalibratsiyasi – ajratib, har biri uchun pedagogik tamoyillarni taklif etdilar ^[14]. R. Naskali (2014) o'z-o'zini baholash savodxonligi (assessment literacy) konsepsiyasini taklif qildi, unga ko'ra ta'lim oluvchi avval tengdosh-baholashni o'zlashtirib, keyingina o'z-o'zini samarali baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchi yo'nalish – mahalliy tadqiqotlar. O'zbekiston pedagogika fanida refleksiv o'qitish masalalarini bir qator olimlar o'rganganlar. Refleksiv o'qitishga innovatsion yondashish va refleksiv texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning psixologik jihatlarini yo'nalishida tadqiqotlar olib borilgan ^[12]. Talabalarda refleksiv qobili-



yatni shakllantirishning nazariy asoslari o'rganilgan^[9]. Adabiy ta'limda formativ baholash mezonlari va o'z-o'zini baholashning o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan^[5]. Talabalarda sanogen refleksiyani shakllantirish bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib borilgan^[6]. Biroq mahalliy adabiyotlarda refleksiv ta'lim muhiti va o'z-o'zini baholashning yaxlit didaktik parametrlari tizimi hali ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

- nazariy tahlil va sintez (klassik va zamonaviy konsepsiyalarni umumlashtirish);
- tizimli-strukturali yondashuv (didaktik parametrlarni guruhlash va iyerarxialashtirish);
- modellashtirish metodi (parametrlar tizimini ishlab chiqish);
- pedagogik diskurs tahlili;
- qiyosiy-pedagogik tahlil.

Metodologik asos sifatida tajriba pedagogikasi (J. Dyui), tajriba o'qitish davrasi (D. Kolb), metakognitsiya nazariyasi (J. Floull), o'zini-o'zi tartibga solish nazariyasi (A. Bandura, B. Zimmerman) hamda ichki teskari aloqa konsepsiyasi (D. Nikol) tamoyillaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Refleksiv ta'lim muhiti va o'z-o'zini baholash tushunchalarini operatsionalizatsiya qilish

Refleksiv ta'lim muhiti deganda biz quyidagini tushunamiz: bu maxsus tashkillashtirilgan didaktik makon bo'lib, unda ta'lim oluvchining o'z faoliyati, fikrlash jarayonlari, ta'lim natijalari va shaxsiy rivojlanishiga chuqur tahliliy munosabat shakllantirish uchun zarur pedagogik, psixologik va texnologik shart-sharoitlar yaratiladi^[4, 12].

Refleksiv ta'lim muhitining muhim xususiyatlari quyidagilar: subyektiv pozitsiyaning ustuvorligi, dialogiklik, tanqidiy fikrlash madaniyati, xatolarni o'rganish manbai sifatida qabul qilish, psixologik xavfsizlik, individual sur'atning hurmati. O'z-o'zini baholash ko'nikmalari – bu ta'lim oluvchining o'z bilim, ko'nikma, kompetensiya va shaxsiy fazilatlarini ma'lum mezonlar asosida ongli ravishda tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalovchi murakkab metakognitiv kompetensiyadir^[8, 11].

Bu ko'nikmalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) baholash mezonlarini tushunish va qo'llash;
- 2) o'z faoliyat natijalarini kuzatish va qayd etish;
- 3) ichki teskari aloqani shakllantirish;
- 4) o'zini-o'zi tahlil qilish va mulohaza yuritish;
- 5) o'z baholarini etalon bilan kalibratsiya qilish;
- 6) o'z-o'zini baholash asosida o'rganish strategiyasini moslashtirish.

Refleksiv ta'lim muhiti va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari o'zaro chuqur bog'liqdir: refleksiv muhit o'z-o'zini baholash uchun pedagogik shart-sharoit yaratadi, o'z-o'zini baholash esa refleksiv muhitning haqiqiyli va samaradorligini ta'minlovchi markaziy mexanizm hisoblanadi.

Didaktik parametrlar tushunchasi va ularning tizim sifatida tarkibiy tuzilishi

Didaktik parametrlar deganda ta'lim jarayonining loyihalashtirilishi va amalga oshirilishi uchun ahamiyatli bo'lgan, o'lchanadigan va boshqariladigan ko'rsatkichlar majmuasini tushunamiz. Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini – maqsad, mazmun, jarayon, vosita va natijani – qamrab oladigan yaxlit tizimni tashkil etishi kerak. Olib borilgan nazariy tahlil natijasida didaktik parametrlar tizimini to'rt asosiy guruhga ajratdik: maqsadli-mazmuniy guruh, tashkiliy-jarayoniy guruh, texnologik-vositali guruh va natija-baholash guruhi. Har bir guruh ma'lum miqdordagi parametrlarni o'z ichiga oladi, jami 26 parametr.

Quyida har bir guruh batafsil tahlil qilinadi.

1. Maqsadli-mazmuniy guruh parametrlari.

Birinchi guruh ta'lim jarayonining maqsadli-mazmuniy yo'nalganligini belgilovchi parametrlardan iborat. Bu guruh refleksiv ta'lim muhitining konseptual asosini tashkil etadi (1-jadval).



1-jadval: Maqsadli-mazmuniy guruh didaktik parametrlari

No	Parametr	Ko'rsatkichlari (indikatorlari)
1.1	Refleksiv maqsadlarning aniq belgilanganligi	O'quv reja va dasturlarda o'z-o'zini baholash ko'nikmalari o'quv natijalari ro'yxatida mavjud; har bir mavzu uchun refleksiv maqsad shakllantirilgan
1.2	O'z-o'zini baholash mezonlari tizimliliigi	Mezonlar oldindan e'lon qilingan, ta'lim oluvchilarga tushunarli til bilan bayon etilgan, har bir mezon uchun aniq darajalar belgilangan
1.3	Ta'lim mazmunining muammoliligi	Dars materiallarida ko'p variantli javoblarga ega muammoli vaziyatlar mavjud, bir qiymatli javoblar ulushi 30 foizdan oshmaydi
1.4	Metakognitiv strategiyalarning integratsiyasi	O'quv mazmuniga rejalashtirish, kuzatish va baholash strategiyalari o'rgatish kiritilgan
1.5	Mezonlarni hamkorlikda yaratish	Ta'lim oluvchilar baholash mezonlarini yaratish jarayonida ishtirok etadi (co-construction of criteria)
1.6	Mazmunning shaxsiy ahamiyatga egaligi	O'quv vazifalari ta'lim oluvchining hayotiy tajribasi, qiziqishlari va kasbiy istiqbollari bilan bog'liq
1.7	Refleksiv savollar sifati	"Nima o'rgandim?", "Qanday o'rgandim?", "Nima uchun ko'maklashdi?" tipidagi metakognitiv savollar muntazam beriladi
1.8	Mazmuniy hamohanglik	O'z-o'zini baholash vazifalari o'quv maqsadlari, mazmuni va natijalari bilan to'liq mos keladi (constructive alignment)

2. Tashkiliy-jarayoniy guruh parametrlari

Ikkinchi guruh o'qitish jarayonining tashkillashtirilishi va ta'lim oluvchining unga ishtirokini belgilovchi parametrlardan iborat (2-jadval).

2-jadval: Tashkiliy-jarayoniy guruh didaktik parametrlari

No	Parametr	Ko'rsatkichlari (indikatorlari)
2.1	Tajriba o'qitish davrasini qo'llash	D. Kolb davrasining barcha to'rt fazasi (konkret tajriba, refleksiv kuzatish, mavhum konseptualizatsiya, faol eksperimentlash) izchil amalga oshiriladi
2.2	Refleksiv pauzalar mavjudligi	Har bir darsda kamida 5-7 daqiqalik refleksiv pauza tashkil etiladi
2.3	Dialogik o'zaro aloqa	O'qituvchi-talaba va talaba-talaba o'rtasidagi muloqot vaqti dars davomida 40 foizdan kam emas
2.4	Tengdoshlar bilan baholash bosqichi	O'z-o'zini baholashdan oldin tengdoshlar bilan baholash (peer-assessment) tashkil etiladi
2.5	Refleksiv kundalik yuritish	Talabalar muntazam ravishda elektron yoki qog'oz refleksiv kundalik yuritadilar
2.6	Psixologik xavfsizlik muhiti	Xatolar o'rganish imkoniyati sifatida qabul qilinadi; tanqid emas, konstruktiv fikr-mulohaza ustuvor
2.7	Bosqichli avtonomiyaga o'tish	O'qituvchi nazoratidan ta'lim oluvchi avtonomiyasiga izchil va asoslangan o'tish ta'minlanadi (scaffolding)

3. Texnologik-vositali guruh parametrlari

Uchinchi guruh refleksiv ta'lim muhitida qo'llaniladigan didaktik vositalar va texnologiyalarni belgilovchi parametrlardan iborat (3-jadval).

3-jadval: Texnologik-vositali guruh didaktik parametrlari

No	Parametr	Ko'rsatkichlari (indikatorlari)
3.1	Baholash rubrikalari	Har bir mavzu uchun aniq baholash darajalariga ega rubrikalar ishlab chiqilgan va ta'lim oluvchilarga taqdim etilgan
3.2	Refleksiv portfolio	Talabalarning ish namunalarini, refleksiyalarini va o'sish dalillarini saqlovchi raqamli yoki an'anaviy portfolio mavjud
3.3	Etalon namunalar to'plami	Yuqori, o'rta va past sifatdagi ish namunalari (exemplars) bilan ishlash imkoniyati
3.4	Raqamli o'z-o'zini baholash vositalari	LMS platformasida o'z-o'zini baholash interfaces, anketalar, refleksiv prompt-lar mavjud



№	Parametr	Ko'rsatkichlari (indikatorlari)
3.5	Vizualizatsiya vositalari	Bilim xaritalari, refleksiv diagrammalar, o'sish grafigi kabi vizual vositalarni qo'llash
3.6	Formativ teskari aloqa vositalari	Doimiy formativ teskari aloqa uchun anketa, mini-test va o'z-o'zini tekshirish ro'yxati mavjud

4. Natija-baholash guruhi parametrlari

To'rtinchi guruh ta'lim oluvchining o'z-o'zini baholash ko'nikmalari rivojlanish darajasini aniqlovchi parametrlardan iborat (4-jadval).

4-jadval: **Natija-baholash guruhi didaktik parametrlari**

№	Parametr	Ko'rsatkichlari (indikatorlari)
4.1	O'z-o'zini baholash aniqligi	Ta'lim oluvchining o'z-o'zini bahosi va o'qituvchi bahosi o'rtasidagi farq 1 ballgacha (10 ballik shkalada)
4.2	Mezonlardan foydalanish chuqurligi	Ta'lim oluvchi 4+ mezonni o'z bahosida konkret misollar bilan asoslab beradi
4.3	Refleksiv mulohaza sifati	Yozma refleksiyada 5R freymvorki (Reporting, Responding, Relating, Reasoning, Reconstructing) darajalaridan kamida 3-darajaga erishilgan
4.4	Faoliyat strategiyasini moslashtirish	Ta'lim oluvchi o'z-o'zini baholash natijalari asosida keyingi qadamlarini aniq belgilab beradi va amalga oshiradi
4.5	Dinamik o'sish ko'rsatkichi	Semestr davomida o'z-o'zini baholash aniqligi va chuqurligi kamida 25 foizga oshadi

5. Didaktik parametrlar tizimining iyerarxik xususiyati

Yuqorida bayon etilgan to'rt guruh va 26 parametr o'zaro bog'liqlikda mavjud bo'lib, yaxlit didaktik tizim sifatida ishlaydi. Bu tizimning iyerarxik xususiyati shundaki, maqsadli-mazmuniy guruh parametrlari (1.1-1.8) didaktik tizimning konseptual asosini belgilaydi; tashkiliy-jarayoniy guruh (2.1-2.7) ta'lim jarayonining amaliy tashkillashtirilishini; texnologik-vositali guruh (3.1-3.6) zarur vositalarni; natija-baholash guruhi (4.1-4.5) esa erishilgan natijalar darajasini aniqlaydi. Tizimning samarali ishlashi uchun barcha to'rt guruh parametrlari muvozanatli rivojlangan bo'lishi shart. Birorta guruhdagi bo'shliq butun tizimning samaradorligini sezilarli pasaytiradi. Masalan, agar texnologik-vositali guruh yetuk bo'lsa-da, tashkiliy-jarayoniy guruhda psixologik xavfsizlik (2.6) parametri ta'minlanmasa, o'z-o'zini baholash ko'nikmalari to'liq rivojlanmaydi. Bu "eng zaif bo'g'in" tamoyili pedagogik tizimlar uchun universal qonuniyatdir.

6. Tizimning amaliyotda joriy etilishi: pedagogik tavsiyalar

Taklif etilayotgan didaktik parametrlar tizimini ta'lim muassasalarida joriy etish bosqichli yondashuvni taqozo etadi.

Birinchi bosqich – diagnostik. Ta'lim muassasasida mavjud o'quv jarayonining 26 parametr bo'yicha diagnostikasi o'tkaziladi. Har bir parametr uchun mavjud holat aniqlanadi (mavjud emas / qisman mavjud / to'liq mavjud). Diagnostika natijalari asosida "zaif bo'g'inlar" aniqlanadi va ulardan boshlanadi.

Ikkinchi bosqich – maqsadli-mazmuniy guruhning shakllantirilishi. O'quv reja va dasturlariga o'z-o'zini baholash ko'nikmalari rasmiy o'quv natijalari sifatida kiritiladi. Baholash mezonlari tizimi ishlab chiqilib, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda muhokama qilinadi va aniqlashtiriladi.

Uchinchi bosqich – tashkiliy-jarayoniy guruhning rivojlantirilishi. O'qituvchilar Kolb davrasi asosida dars loyihalashga o'qitiladi. Refleksiv pauzalar, dialogik shakllar, tengdoshlar bilan baholash, refleksiv kundalik yuritish kabi amaliyotlar joriy etiladi. Bu bosqichda eng muhim narsa – psixologik xavfsizlik muhitining yaratilishidir.

To'rtinchi bosqich – texnologik-vositali guruhning ishga tushirilishi. Baholash rubrikalari, refleksiv portfolio shakllari, raqamli vositalar tayyorlanadi. LMS platformasi imkoniyatlaridan to'liq foydalaniladi. Etalon namunalari to'plami yig'iladi.

Beshinchi bosqich – natija-baholash guruhi orqali monitoring. Ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalari rivojlanish dinamikasi muntazam kuzatib boriladi. Olingan natijalar asosida tizim takomillashtiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Refleksiv ta'lim muhiti va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari o'zaro chuqur bog'liqdagi pedagogik kategoriyalardir. Refleksiv muhit o'z-o'zini baholashga shart-sharoit yaratadi, o'z-o'zini baholash esa refleksiv muhitning amaliy haqiqiylikini ta'minlovchi mexanizmdir ^[4, 11].
2. O'z-o'zini baholash ko'nikmalari oltita tarkibiy qismdan iborat metakognitiv kompetensiyadir: mezonlarni tushunish va qo'llash, natijalarni kuzatish va qayd etish, ichki teskari aloqani shakllantirish, o'zini-o'zi tahlil qilish, baholarni etalon bilan kalibratsiya qilish, o'rganish strategiyasini moslashtirish ^[8, 14].
3. Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi to'rt guruh va jami 26 parametrdan iborat: maqsadli-mazmuniy guruh (8 parametr), tashkiliy-jarayoniy guruh (7 parametr), texnologik-vositali guruh (6 parametr) va natija-baholash guruhi (5 parametr).
4. Taklif etilayotgan tizimning iyerarxik xususiyati har bir guruh parametrlarining muvozanatli rivojlanishini taqozo etadi. "Eng zaif bo'g'in" tamoyili bo'yicha birorta guruhdagi bo'shliq butun tizim samaradorligini sezilarli pasaytiradi.
5. Tizimni amaliyotda joriy etish beshta bosqichni o'z ichiga oladi: diagnostik bosqich, maqsadli-mazmuniy guruhning shakllantirilishi, tashkiliy-jarayoniy guruhning rivojlantirilishi, texnologik-vositali guruhning ishga tushirilishi va natija-baholash guruhi orqali monitoring.
6. Tizim oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida refleksiv ta'lim muhitini loyihalashtirishda hamda o'qituvchilarning malakasini oshirish dasturlarida foydalanish mumkin. U pedagogik amaliyotni ilmiy asosga qurishga ko'maklashadi va ta'lim oluvchilarning hayotiy va kasbiy muvaffaqiyati uchun zarur metakognitiv kompetensiyalarni samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan didaktik parametrlar tizimining turli yosh guruhlari (boshlang'ich, o'rta, oliy ta'lim), o'quv fanlari va madaniy kontekstdagi spetsifik moslashtirishlari, shuningdek, sun'iy intellekt vositalari yordamida o'z-o'zini baholash jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari o'rganilishi zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. – Boston: D.C. Heath, 1933. – 301 p.
3. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
4. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. 2nd ed. – Upper Saddle River: Pearson Education, 2015. – 416 p.
5. Ta'lim tizimida baholashning asosiy mezonlari va uning ahamiyati // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2023. – URL: <https://www.researchgate.net/publication/374458193>
6. Talabalarda sanogen refleksiyani shakllantirish // Farg'ona metodik maktabi jurnali. – 2023. – URL: <https://fergana-method.uz/index.php/journal/article/download/2611>
7. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.
8. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34, No. 10. – P. 906–911.
9. Talabalarni refleksiv qobiliyatini shakllantirishning nazariy asoslari // Modern Science and Research. – 2025. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/104399>
10. Zimmerman B.J. Attaining self-regulation: A social cognitive perspective // Handbook of Self-Regulation. – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 13–39.
11. Yan Z., Carless D. Self-assessment is about more than self: the enabling role of feedback literacy // Assessment & Evaluation in Higher Education. – 2022. – Vol. 47, No. 7. – P. 1116–1128.
12. Refleksion o'qitishga innovatsion yondashish va refleksiv texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning psixologik jihatlari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2022. – URL: <https://www.researchgate.net/publication/360000957>
13. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
14. Nicol D., McCallum S. Making internal feedback explicit: Exploiting the multiple comparisons that occur during peer review // Assessment & Evaluation in Higher Education. – 2022. – Vol. 47, No. 3. – P. 424–443.
15. Bain J., Ballantyne R., Mills C., Lester N. Reflecting on Practice: Student Teachers' Perspectives. – Flaxton: Post Pressed, 2002. – 156 p.
16. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2007. – 270 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.